

I

Seryog'in bahor ko'z ilg'amay o'tib ketdi. Cho'lga giyohlarni qovjiratadigan yoz keldi. Endi qaqrab ketgan yobonlarda dikkayib o'sadigan yantoqlaru saksuvallardan bo'lak tiriklik asari ko'rinsassi. Shuning uchun ham Yangisuvga yetib kelguncha, imperator Pyotr Itomonidan Xiva xonligiga yuborilgan ekspeditsiya a'zolari O'rta Osiyo yozining butun injiqliklariga chidashiga to'g'ri keldi. Ayniqa jazirama issiqda o'tlar qovjirab ketganligi tufayli otlar va tuyalarni boqish nihoyatda qiyin kechdi. Ekspeditsiya degani bu, sirasini aytganda, yuk ortilgan xachir-tuyalaru, uch mingdan ziyod otliq qo'shin bo'lib, unga podsho gvardiyasining Preobrajensk polki poruchigi Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchilik qilardi. Rus urlariga monand soqol-mo'ylov va bakenbard qo'ygan, miqtidan kelgan Cherkasskiy aslida qabarlik musulmon zodogonlaridan bo'lib, uning haqiqiy ismi Iskandarbek edi. U qachonlardir, Pyotr I saroyida katta nufuzga ega bo'lgan knyaz' Golitsinning qizi Mariyaga uylangan va nasroniylik dinini qabul qilgandi. Cho'qintirish marosimidan so'ng, u o'ziga Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy nomini qabul qildi. Bu bilan u hech narsani yo'qotmadi, balki, cherkaslik bek o'g'li Iskandarbek bo'lib qolaverdi. Pyotr I ham rus davlatiga xizmat qilishga bl bog'lagan bu qabarlik yigitga iltifot ko'rsatib, unga knyaz' unvonini tortiq qildi. Knyaz' Golitsinning qizi Mariyadan farzand ko'rgach, uni xorijiga harbiy sohani o'rganish uchun o'qishga yuborishdi. U yoddan qaytgach, Bekovich-Cherkasskiy Preobrajensk leyb-gvardiya polkida poruchik unvonida xizmatga tayinlashdi. U leyb-gvardiyada xizmat qilarkan, qaynotasi knyaz' Golitsinning yordami va o'zining harbiy iste'dodi tufayli podshoning yaqin va ishonchli mulozimlaridan biriga aylandi. Mana endi ana shu ishonch tufayli imperatorning shaxsan o'zi Xiva xonligini tobe etish vazifasini aynan unga topshirdi. To'g'ri bu vazifani o'z zimmasiga olish uchun Bekovich-Cherkasskiyning o'zi ham katta g'ayrat ko'rsatgandi. Bunga hozirda ekspeditsiya safida bo'lgan, taqdiri Cherkasskiyning o'xshab ketadigan knyaz' Mixail Samonov sabab bo'lgandi. Sersoqol, qora qosh-ko'zli Mixail Samonov avvallari Eronning G'ilon viloyati hokimi bo'lib, ayrim sabablarga ko'ra Rossiyaga qochib kelib nasroniylik dinini qabul qilgan, Cherkasskiy kabi ismi-sharifini o'zgartirib, knyaz' unvonini olgandi. Ana shu Mixail Samonov bir kuni Cherkasskiy huzuriga Xo'ja Nafas degan bir turkman savdogarini boshlab kelgandi. Cho'girma telpakli, g'urillab gapiradigan bu savdogar Samonovni ham, Cherkasskiyini ham og'zini ochirib qo'ydi. U Amudaryoning bir paytlari Kaspiy dengiziga quyilishini, xorazmliklar tug'onlar qurib daryo oqimini Orol dengiziga burib yuborishlarini siri haqida gapirdi. Uning aytishicha, bunga oltinlar sababchi emish; Hozirda daryoning qurigan o'zanlarida oltin qumlari uyulib yotgan emish; o'rta asrlardagi Xoramshohlar davlatining qudrati ana shu oltinlar orqasidan bo'lgan ekan. Endilikda bu joylar Xiva xonlarining qat'iy nazaratida emish; Agar qaysiir davlat Xiva xonligini bo'ysundirsa, tillolar tagiga qolib ketadi. Xo'ja Nafas oltinlar haqida vasvasaga berilarkan, Bekovich-Cherkasskiy otni o'z vaqtida qamchilab qolish haqida o'yldardi. U Rossiya uchun oltinlarni naqadar zarurligini yaxshi bilardi. Shuning uchun bu haqda zudlik bilan Pyotr I ga axborot berishni lozim topdi. Agar bunday qilmasa, bu ishni g'ilonlik knyaz' Mixail Samonov ham qilishi mumkin edi. Biroq Bekovich-Cherkasskiy ham og'zidan oshini oldiradiganlardan emasdi. U o'sha kuniyoq zudlik bilan saroya bordi. Izni so'rab ichkariga kirarkan, Pyotr I Sankt-Peterburgga kelgan Sibir' gubernatori Matvey Gagarin bilan suhbatlashib o'tirardi.

Zoti oliylari suhbatlariga xalal bergen bo'lsam uzrimni qabul qiladilar, nazokat bilan so'z boshladi Cherkasskiy.

Knyaz', sizda biror yangilik bo'lmasa, huda-behuda xotirimizga malol keladigan ish qilmasligingizni biz yaxshi bilamiz, dedi Pyotr I, Cherkasskiyga Matvey Gagarin qarshisida o'tirishga izn berarkan. Marhamat o'tiring.

Tashakkur janobi oliylari, dedi Cherkasskiy kursida o'tirarkan. Men savdogarlar orqali Xiva xonligi hududida juda katta oltin zahiralari borligi haqida ma'lumot olgandim. Shu haqda sizga axborot berishni lozim topdim.

Cherkasskiy Amudaryo o'zanlarida uyulib yotgan oltin qumlari haqida Xo'ja Nafasdan eshitgan gaplarni Pyotr I va Matvey Gagaringa so'zlab berarkan, imperator:

Amudaryo sohillarida oltinlar ko'pligiga ishonchingiz shunchalik komilm? deb so'radi.

Albatta hazrati oliylari, bundan ko'nglingiz to'q bo'lsin, buni o'z ko'zi bilan ko'rgan odamlar bor.

Sibir' gubernatori Matvey Gagarin baxtga muvofiq Cherkasskiyning so'zlarini tasdiqladi:

Hazrati oliylari, dedi u. Knyaz' Cherkasskiyhaq gapni gapirmoqda nazarimda. Mana, yaqindagina Yorkentga borib kelgan sibirlik savdogarlar bug'u mo'ynalarini ushbu oltinlarga sotishibdi.

U ichki cho'ntagidan charm saxtiyonini olib, ochgancha, nuqraday oltinlarni Pyotr I ga ehtirom bilan uzatdi:

Yorkentliklarni aytishicha, bu oltinlar Sirdaryo sohillaridan olib kelingan emish

Pyotr Igubernator Matvey Gagarin uzatgan oltin donalarini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirar ekan:

Haqiqiy, asl oltinlar, dedi. So'ng Cherkasskiyga nigohini qaratib dedi: Nahotki, Amu va Sir oralig'ida siz aytganingizdek, oltinlar uyulib yotgan bo'lsa, ishoni qiyin!?

Biroq eshitganlarimiz va ko'rganlarimiz shundan dalolat bermoqda a'lo hazratlari, dedi Cherkasskiy sharqona lutf bilan. Bu oltinlar Rossiyaniki bo'lishi lozim. Biroq baxtga qarshi hozir u yerlar Xiva va Buxoro xonlarining nazaratida. Agar oltinlarga egalik qilishni istasak, mazkur xonliklarni rus davlati tobeligiga o'tkazishimiz kerak.

Ammo bu siz o'ylaganchalik oson ish emas, luqma tashladi Matvey Gagarin.

Pyotr gubernatorga tillalarni qaytarish uchun uzati. Gubernator ta'jublanib, o'rnidan turarkan:

Bunday qilishingizni hojati yo'q, hazrati oliylari, dedi. Men bu tillalarni xazina uchun sizga tortiq qilaman. Janob Bekovich-Cherkasskiy Xiva va Buxoro xonliklaridan sizga yana ham kattaroq tortiq olib kelsa, ajab emas.

Pyotr gubernator qaytargan tillalarni hashamatli stol ustiga qo'yarkan, Matvey Gagaringa:

Siz shunday deb o'laysizmi? deb so'radi.

Albatta, dedi gubernator boshini xiyol saraklatarkan. Siz hazrati oliylari, janob Cherkasskiyning ko'zlariga qarang. Unda shijoat va o't porlamoqda.

Pyotr leyb-gvardiya poruchigiga yuqorida boqarkan, Cherkasskiyga siz bunga nima deysiz, degandek tuyuldi. Cherkasskiy Sibir' gubernatoridan ich-ichidan minnator bo'larkan, imperatorga:

Hazrati oliylari, men rus davlati uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qilishga tayyorman, dedi. Hatto Xiva va Buxoro xonliklarni tobe etishni zimmamang'a topshirsangiz buni a'lo darajada uddalayman deb o'yayman.

Knyaz' bu siz o'ylaganchalik oson ish bo'lгanda biz buni allaqachon amalga oshirardik. Buxoro xoni Abulfayzxon va Xiva xoni Sherg'ozixonlara siz o'ylaganchalik oltinlar bo'lsa, ular bunga bekorga egalik qilishmayotgandir. Bu yerlarni zabt etishimiz uchun katta harbiy kuch va harbiy xarajatlar talab qilinadi.

Lekin janobi oliylari, dedi qat'iyatl Cherkasskiy. Siz Rossiyanı Yevropaning rivojlangan davlatlaridek qudratli davlat bo'lishini hamisha orzu qilasiz. Buning uchun bizga ko'p oltinlar lozim. Agar menga ijozat bersangiz davlatimiz uchun oltinla keltirishni o'z zimmamga olaman.

Yaxshi janob knyaz', dedi Pyotr I. Men sizning qat'iyatingizni hurmat qilaman. Men bu haqda vazirla va gubernatorlar bilan maslahatlashaman. Ungacha, siz mening qarorimni kuting.

Imperator shu bilan oltin mavzusmga chek qo'ydi. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy izn so'rab, Pyotr I va Matvey Gagarin bilan xayrasharkan, saroydan tashqariga qadam qo'ygach, o'zini ulug'vor ishlar kutayotganligini his qilardi

## II

U imperator va Matvey Gagarin oldida o'zini mardona tutganidan ko'ngli ancha taskin topdi. O'zida shunchalik qat'iyatlilik iroda borligini ilgari sira ham o'ylab ko'rmasgandi. U o'zini qachonlardir katta ishlarga qodirman deb o'ylardi. Endi esa uning orzulari ro'yobga chiqishiga juda oz vaqt qolganligini u butun vujudi bilan tuydi. Butun umri Qabarda o'tgan otasi unga Iskandar ismini qo'yganda nimalarni o'ylagani endilikda Aleksandrga aylangan Bekovich-Cherkasskiyga qorong'u-yu, ammo uning orzulari o'ziga kundek ravshan. Qachonlardir, olis zamonlarda O'rta Osiyoga yurish qilgan makedoniyalik Aleksandrni ham mahalliy xalqlar Iskandar nomi bilan atashgan. Pyotr I saroyida muayyan nufuzga ega bo'lism uchun aslan Iskandarbek bo'lgan Bekovich-Cherkasskiy Aleksandr nomini qabul qilsa nima bo'libdi?! Bu bilan osmon uzilib yerga tusharmidi?! Agar hammasi u o'ylagandek kechadigan bo'lsa, uning iqbol yulduzi porlash arafasida turganligiga shubha yo'q. Knyaz' Bekovich-Cherkasskiy Pyotr I saroyidan shunday o'ylar ichra uyiga qaytib keldi. Knyazning nasroniylik uslubida qurilgan picha salobatli va shu bilan birgalikda ixcham ko'rindigan qasrida doimgidek osudalik hukm surardi. Knyaz' garchand jangu-jadallar va suronlarni sevsada, ammo uyida osudalik muhiti hukm surishini xush ko'rardi. Shuning uchun ham xizmatkorlar oyoq uchida yurar, bog' adog'iagi oxonadan beri kelishmas, bundan faqatgina qasr eshigi oldida mudrab turadigan qorovulgina mustasno edi. Knyaz' har gal uyga kelganda, unga dakki berardi. Bu mudrab o'tirishingda, qachondir qasrni o'g'rilar tunab ketadi, derdi knyaz'. Ammo bu gal qorovulga hech qanday ogohlantirish bermasdan o'tib ketishni lozim topdi. Qorovul qasr sohibini o'tib ketayotganligini ko'rib, ancha xushyor tortgan bo'lsa-da, ammo baribir kechikkandi. U qorovulxona eshigi oldidan chiqib knyazning ortidan yugurdi. Knyaz' qorabayir otidan tusharkan qorovulga:

Otboqarlarga ayt, qorabayirga dam berishsin, dedi.

Xo'p bo'ladi, dedi qorovul otni jilovidan ushlarkan. So'ng otboqarlarni nomini aytib chaqira boshladi: Pasha, Misha qayoqdasizlar?..

Knyaz' Cherkasskiy qasrga qadam ranjida qildi. Xushbichim, mallasoch Mariya uni jilmayib qarshi oldi. Mariyani ko'rgan Iskandarbekning ham yuziga tabassum yugurdi.

Keldingizmi Aleksandr, odatiy qarshi oldi uni Mariya.

Ha, azizam, xushnud alfovda Mariyani belidan quchib o'rnida gir aylandi Bekovich-Cherkasskiy. Bilasanmi, hozir qayerdan kelayapman. Pyotr I saroyidan.

Xush, saroya nima gaplar azizim?..

Chamamda meni Xiva xonligini zabit etishga yuborishsa kerak?! takabburona jilmayi Cherkasskiy.

Meniva qizimni tashlab ketasizmi? araznamo oldinga yurib keta boshladi Mariya.

Qachon tashlab ketgan ekanman? Mariyaga yetib olib, xotinini yuzini o'ziga qaratdi Cherkasskiy.

Xorijga o'qishga ketganingizda ham qizimiz ikalamiz yolg'iz qolqandik. Endi yana ketaman deyapsiz?..

Ammo azizam, men unda harbiy sohadan bilim olish uchun ketgandim. Endi esa meni O'rta Osiyoni zabit etish uchun yuborishmoqchi?! Aytishlaricha, u yerda oltinga belangan sohillar bor emish. Xivani zabit etsam seni ham, Rossiyani ham oltinlarga ko'mib yuboraman. Mariya, sen malikalardek yashaysan, tushunyapsanmi?..

Nima desangiz ham sizning ketishingizni istamayman. Chunki menga oltinlardan ham muhim er kerak, yalingannamo nozlandi Mariya. Azizim, sizni sog'inaman

Bekovich-Cherkasskiy xotinining lablaridan bo'sa oldi. So'ng uni ko'targancha zallar osha yotoqxona tomonga olib ketarkan, Mariyadan so'radi:

Darvoqe, qizimiz ko'rinnmaydi?..

Bobosi bilan ketgandi. Bilasiz-ku, otamning qasrida katta hovuz bor. Qizimizning o'sha hovuzda cho'milgisi kelibi.

Knyaz' Golitsin kelganmid? Mariyani pastga tushirarkan, so'radi Cherkasskiy. Ehtimol, menda biror yumushi bordir.

Yo'q, yo'l ustidan o'tayotganda, birrovga kirgan ekan, javob berdi Mariya. Qizimiz esa, u bilan ketaman, deb turib oldi.

Uyda zerikkadir-da, dedi knyaz' Cherkasskiy. Mayli, bobosinikiga ham aylanib kelsin.

Mariya javob o'rnida erini bo'ynidan quchdi. Cherkasskiy esa bunga javoban Mariyani opichlab ko'targancha, yotoqxona divaniga itqitdi. O'sha damda dunyoda Cherkasskiydan baxtliroq odam yo'q edi. Bahaqqi Xudo, Mariya uni sevardi. Erkak zoti uchun hayotda bundan boshqa yana nima kerak?!B Ammo Cherkasskiyga o'xshagan odam mana shu kichkina, jo'n baxt bilan qanoatlanib qolishni istamasdi. U Mariyaga bo'lgan muhabbatni yoniga buyuklik va shon-shuhrat ham qo'shilishini istardi. Baxtga aynan shu shaklda erishish uning hayotida mukammallik baxsh etardi

## III

Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy Pyotr I huzurida bo'lganidan so'ng, oradan ko'p o'tmay, uni harbiy vazirlikka chaqirishdi. U yerda unga Rossiyaning Xiva xonligiga yurish qilishga ahd qilganini va bu yurishga boshchilik qilish Pyotr I tomonidan Cherkasskiyga topshirilganini, harbiy qo'shin esa ekspeditsiya deb atalishi haqida qat'iy topshiriqlar berishdi. Harbiy vazir unga o'zi bilan doimiy aloqada bo'lib turishini tushuntirgach, knyaz' Cherkasskiyga Pyotr I ning maxsus yo'riqnomasini topshirishdi. Cherkasskiy yo'riqnomani harbiy vazir huzurida ko'zdan kechirishga izn so'radi.

Albatta, janob Cherkasskiy, dedi vazir. Hech xijolat chekmasdan yo'riqnomasi bilan tanishishingiz mumkin.

Cherkasskiy shosha-pisha yo'riqnomani ochdi. Unda quyidagilar bitilgandi:

"Janob Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyga maxsus yo'riqnomasi[1]

Amudaryo bir vaqtligi Kaspiy dengiziga quyilgan joyda 1000B chaqirimni qamraydigan harbiy istehkom qurilsin. Amudaryo oqimini va tug'onlarini sinchkovlik bilan o'rganib, imkonni bo'lsa eski yo'lga burib yuborilsin. Suvni Orol dengiziga yo'naltiradigan to'g'onlar buzilsin. Bu ishlarni bajarishga qancha kishi kerakligi aniqlansin.

Xiva xonligining rus davlati tobelligiga o'tishiga erishilsin hamda bizning manfaatlarimizga xizmat qilish sharti ko'tarsa, harbiy qism qoldirilsin. Agar xon rozi bo'lsa va sharoiti ko'tarsa, harbiy qismni o'zi ta'minlasin. Bordiyu buni qila olmasa, harbiy qismni

bir yil ta'minlash kafolati berilsin, keyingi yillardagi xarajatlar esa uning zimmasiga yuklatilsin.

Agar Xiva xoni rozilik bildirsa, u vaqtda xon kishilariga ikki rusni qo'shsin va ular Sirdaryo suvi bo'ylab oltin borligini aniqlash uchun Yorkentga jo'natisin. Shuningdek, xondan savdogarlarimizning Amudaryo bo'ylab Hindistonga borishlari uchun kemalar berishi so'ralsin. Savdogarlar ketayotganlarida quruqlik va suv yo'llarini, daryo va ko'llarini, ayniqsa Hindistonga boradigan yo'lни yaxshi o'rgansinlar va ma'lumotlar to'plasinlar. Agar savdogarlar Hindistonga Kaspiy dengizi orqali boradigan yo'l mavjudligini eshitsalar, u vaqtda shuB yo'l bilan orqaga qaytsinlar va ko'rganlarini qog'ozga tushirsinlar.

Xiva xonidan Buxoro xonligining rus davlati tobelligiga o'tishga xohishi bor-yo'qligi aniqlansin. Bordiyu bunday istak bo'lmasa, do'stlik munosabatlari o'rnatishga erishilsin.

Ko'rsatilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun 4000 kishidan iborat muntazam qo'shin va kerakli kemalar ajratilsin. Bundan tashqari, Yoyiq kazaklaridan 1500, eshkakchilardan 500 va otliqlardan 100 kishi berilsin. Ular savdo karvonlarini muhofaza qilish niqobi ostida Ashtarkondan harbiy qal'a va shahar quriladigan joyga, ya'ni Kaspiyning sharqiy qирғоғига yuborilsin. Qo'shin komandirlari barcha joylardagi tub aholiga nisbatan xushmuomilada bo'lsinlar. Shaharni qurish zarur bo'lgan asbob va cho'kichlar berilsin.

Dengiz ofitserlaridan poruchik Kojin va navigatorlardan 50 yoki ko'proq kishi harbiy qismga qo'shilsin. Kojin savdogar niqobida ish yuritishi, navigatorlar esa Yorkentga yuborilishi lozim."

Cherkasskiy yo'riqnomani avaylab yoparkan, harbiy vazir bilan xayrlashishga tutindi. U vazir qabulidan chiqarkan, o'zini qushdek yengil his etdi. Bu uning hayotida yangi davr boshlanayotganidan dalolat berardi. Haqiqatan ham mana shundan so'ng, harbiy harakatlar Bekovich-Cherkasskiy o'ylaganidan ham ko'ra tezlashib ketdi. Harbiy vazir Pyotr I ning maxfiy rejasiga ko'ra, birato'la ikkita ekspeditsiyani safarga hozirlik ko'rishga barcha sharoitlarni yaratib bergandi. Birinchi ekspeditsiya kapitan Ivan Buxgol's rahbarligida Sibir' orqali Tobol'skdan Irtish daryosi bo'ylab Yorkentga borishi kerak edi. Garchi harbiy vazir buni yashirin tutishga harakat qilgan bo'lsa-da, Cherkasskiyga yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, Ivan Buxgol's guruhi 1715 yildayoq yo'lga chiqqan bo'lib, Yamishchev ko'li bo'yida istehkom quradi. Ammo u yerlarda yashayotgan qalmoq qabilalari har tarafdan hujumlar uyuşhtiraver gach, Buxgol's orqaga chekinishga majbur bo'lgandi. Shu bois Pyotr I ning ham, harbiy vazirning ham bor umidi knyaz' Cherkasskiyning bu boradagi sa'y-harakatlariga bog'liq edi. Cherkasskiy Pyotr I ning harbiy istehkomlar qurish va shu yo'l bilan Kaspiy dengizining sharqiy qирғоғларida rus davlati ta'sirini o'rnatisha haqidagi ko'rsatmasini bajarish uchun 69 ta kemada dengiz osha yo'lga chiqdi. Tikqarag'an degan joydan Mang'ishloqqa kelib, bu yerda Avliyo Pyotr nomida istehkom qurdi. Krasnovodskka yetgach, u yerda ham xuddi shunday istehkom barpo etilishiga bosh-qosh bo'ldi. 1717 yilning ko'klamida Bekovich-Cherkasskiy o'z qo'shinlarini bir qismini yo'l bo'yiga qo'yib, o'zi qolgan askarlari bilan kemada Kaspiy dengizi orqali Gur'evga keldi. Bu yerda uning huzuriga qalmoqlar xoni Ayukaning odamlari tashrif buyurdi. Cherkasskiy kapitan Buxgol's ekspeditsiyasini muvaffaqiyatsizligidan yaxshi xabardor bo'lgani uchun qalmoqlar kelishidan qattiq xavotirlandi. Qalmoqlar ham buni darhol sezdi. Ular Bekovich-Cherkasskiy bilan uchrasharkan:

Knyaz' Cherkasskiy, biz qalmoqlardan xavotir olmasligingizni istardik, dedi. Xonimiz Ayuka rus davlatidan uzr so'rashimiz uchun bizni bu yoqqa yubordi. Xonimiz sizning podshohingiz Pyotr I bilan do'stlik sulhini tuzishimiz uchun o'rtada kafil bo'lishingizni istamoqda.

Qalmoqlar Yorkentga ketayotgan ekspeditsiyamizga hujum qilgandan keyin ham shunday so'zlarni gapiryapsizlarmi? Ayukaning odamlariga tahdid qilishga urindi Cherkasskiy.

Shu boisdan ham xonimiz podshohingizdan uzr so'rash uchun bizni sizning huzuringizga yubordi, dedi qalmoqlar elchisi.

Xonimiz qalmoqlarni qilgan beadabliklari uchun sizning ekspeditsiyangizga astoydil yordam berishni istaydi. Xonimizning maktubini sizga topshirishga izn bersangiz??

Knyaz' Cherkasskiy izn ayladi. Elchi Ayukaning maktubini unga topshirdi. Maktubda Ayuka Bekovich-Cherkasskiyi Xiva xonligi chegarasidagi vaziyatdan ogoh qilgandi: "Mening Xiva xonligiga borib kelgan odamimning guvohligiga ko'ra, - degan edi xon o'z maktubida, -2000 kishidan iborat xivaliklar, qaraqalpoqlar va qozoqlar birlashib, chegara joylarda turibilar. Ular yo'llardagi quduqlarni ko'mganlar hamda jang qilish niyatidalar. Yo'llarda jazirama issiq oqibatida o't yo'qligidan rus askarlari og'ir ahvolga tushib qolmasinlar. Vaziyatni batafsil tushuntirish uchun yetti kishini yubormoqdaman[2]".

Bekovich-Cherkasskiy elchi bilan kelgan olti nafar qalmoqqa ko'z tashlarkan, Ayukaga ishonsammikan, yoki yo'qmikan, deb o'yladi. Ehtimol, bu qalmoqlar Cherkasskiy ekspeditsiyasi to'g'risida ma'lumot yiqqani kelgandir?! Ehtimol, qalmoqlarning avval qilgan ayblari uchun Ayuka ruslarga chindan yordam bermoqchidir?! AyukaB bu bilan Pyotrning marhamatiga sazovor bo'lishni ko'zlaganmikan?! Bir narsa deyish qiyin. Nima bo'lganda ham qalmoqlarning kapitan Buxgol'sga qilgan yomonliklaridan so'ng, Cherkasskiy ularga ishona olmasdi. Shuning uchun u Ayukaning elchilariga bergen ma'lumotlari uchun tashakkur bildirib, ularni ortga qaytardi.

#### IV

1717 yilning may oyini oxirlarida Bekovich-Cherkasskiy uch mingdan oshiq qo'shin bilan Gur'evdan chiqib Xiva tomonga yurdi. Ekspeditsiya a'zolari Emba daryosi irmog'idan kechib o'tib, ikki kundan so'ng Bagachat manziliga kelib qo'ndi. So'ngra tegishli ravishda Dukchon, Mansulmas, Chilop, San Durali va niyoyat Yangisuvgacha bo'lgan manzillarni qiyinchilik bilan bosib o'tishdi. Ayuka odamlari tushuntirgan quduqli manzillar bo'yicha yurishganiga qaramay, o'tlar qoyjirab ketganligi tufayli otlar va tuyalarni boqish koni azobga aylandi. Yangisuvga yetib kelgach Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiya a'zolariga bir necha kunlik hordiq e'l on qildi. O'zi ekspeditsiya safidagi turkiy tilni biladigan Mixail Karetovni tinchlik va do'stlik elchisi sifatida borayotganligini ma'lum qilish uchun Xiva xoni Sherg'ozixon huzuriga yubordi. Mixail Karetov xon huzuriga jo'nab ketgach, Bekovich-Cherkasskiy biroz hordiq chiqqargan ekspeditsiyani yana yo'lga boshlab Shershik qudug'i va Qoraqumobod arig'i orqali Oqko'l arig'i bo'yiga keldi.

Knyaz' shu yerda turganida uning huzuriga Xiva xoni Sherg'ozixon nomidan ikki kishi va Karetov bilan qo'shilib ketganlardan biri kelganining xabarini berishdi. Cherkasskiy ularni qabul qildi. Ular xon nomidan Bekovich-Cherkasskiyga ot, to'n va turli shohona matolardan iborat sovg'a-salomlar topshirdi. Cherkasskiy ham qarab turgani yo'q. Xon elchilariga turfa navozishlar ko'rsatib, ularga dilkash munosabatda bo'ldi. Elchilar qaytib ketishi bilanoq, u Xivaga yurishini davom ettirdi. Poytaxtgacha to'rt kunlik masofa qolganda, ekspeditsiyani Xiva xonligining qo'shinlari qarshi oldi. Kutilganidek, xonlik qo'shinlari hujumga o'tdi.

Bekovich-Cherkasskiy o'zini yo'qotib qo'ymadidi. U rus harbiy qismlarini tizimli ravishda joylashtirib, xonlik qo'shinlari hujumini naqaqt qaytardi, balki o'zi ham rus qo'shinlarini hujumga chorladi. Uch kun davom etgan shiddatli to'qnashuvdan so'ng, ruslarning qo'li baland kela boshladi. Xiva xonligi qo'shinlari chekinishni afzal ko'rishdi. Knyaz' Mixail Samsonov xonlik qo'shinlarini ta'qib

etishni taklif etdi. Ammo Cherkasskiy shoshmaslikni afzal ko'rdi. U Samonovga:

Harbiy harakatlarda shoshilish muvaffaqqiyat keltirmaydi, dedi. Samonov noiloj:

Ixtiyorin giz knyaz' Cherkasskiy, dedi. Bu yerda bizni siz boshlab kelgansiz. Binobarin, harbiy harakatlarga ham siz javob berasisiz. Biz esa sizning muvaffaqqiyatingizga ozgina bo'lsa-da, ulushimizni qo'sholsak, o'zimizni baxтиyor his qillardik.

Cherkasskiy knyaz' Samonovning o'zining muvaffaqqiyatidan ichi qiziyotganligini sezdi. Axir to'g'rida, Xiva xonligidagi tillalar xabarini bergen Xo'ja Nafasni unga aynan Mixail Samonov tanishtirgandi. U esa Samonovning og'zidagi oshini ilib ketdi. Endi esa Cherkasskiy Xiva xonligi ustidan zafar qozonish arafasida turibdi. Bu muvaffaqqiyatdan Samonovning hasadi kelayotgan bo'lsa ajab emas. Knyaz' Cherkasskiy Samonov bilan xayrlashib, o'z chodirida yolg'iz qolarkan, endi bundan buyog'iga nima qilish lozimligi haqida o'yldi. Bugungi to'qnashuv ko'rsatdiki, Cherkasskiy Xiva xonligini bemalol zabit eta oladi. Xiva uning oyog'i ostida turibdi. Uning mukammal qurollangan qo'shiniga qarshi Sherg'ozixon nima ham qila olardi?! Sherg'ozixonning qo'lidan hech narsa kelmaydi. Kerak bo'lsa, Sherg'ozixonning taxtiga o'zi o'tiradi. U xon unvonini qabul qiladi. Mariya Xiva malikasiga aylanadi. Pyotr I ga Xiva tillalaridan yuborib tursa bas, xonlik taxtini imperator undan boshqa kimga ham berardi?! Cherkasskiy shunday o'ylar ichra o'tirar ekan, brigadir Grigoriy Volkov kirib keldi:

Janob Cherkasskiy, oromingizni buzganim uchun avf etsinlar, dedi u. Biz tomonga chamamda xivalik elchilar kelmoqda. Bu haqda sizga birinchi bo'lib xabar berishni lozim topdim.

Raxmat Grigoriy, ddedi knyaz' Cherkasskiy. Yur, harbiy majlislar o'tkaziladigan chodirga boraylik.

Brigadir Volkov uning ortidan ergashdi. Xiva ustidan qozonilgan dastlabki muvaffaqqiyatdan so'ng Cherkasskiyga hamma unga xushomad qilayotgandek tuyuldi. Yo'qsa, mana bu brigadir Volkovga nima kerak?! O'zining ishini bilib qilib yuravermaydimi?! Hatto shu ham o'zini Cherkasskiyga yaqin olishga urinyaptimi, boshqalarni qo'yavering. Cherkasskiy harbiy majlislar chodiri oldiga yaqinlashgach, brigadir Grigoriy Volkovga dedi:

Janob Volkov, barcha boshliqlarni harbiy majlislar chodiriga to'plang. Chodir atrofida soldatlarni ko'paytiring.

Xo'p bo'ladi, knyaz' Cherkasskiy, dedi Volkov hamda yugurgilagancha, boshliqlarning xos chodirlari tomonga ketdi.

Zum o'tmay harbiy majlislar chodirida barcha harbiy boshliqlar navbatma-navbat kirib kela boshladi. Knyaz' Samonov va Grigoriy Volkov oxirida kirib keldi. Hamma kelgach, Cherkasskiy gap boshladi:

Sizlarga ma'lumki, dedi u, biz Xiva xonligi ustidan muvaffaqqiyat qozonish arafasida turibmiz. Brigadir Grigoriy Volkovning aytishicha, biz tomona Xiva xonligiddan yangi elchilar kelayotgan emish.

Janob knyaz' ular allaqachon kelib bo'lishi, luqma tashladi Grigoriy Volkov. Hozir ular qorovul bo'linmalarining komendanti huzurida. U yerda Mixail Karetov ham bor.

Shundaymi, ta'ajjublandi knyaz' Cherkasskiy. Biz hayotdan orqaga qolibmiz-ku?!

Chodirda duv kulgi ko'tarildi. Grigoriy Volkov qovun tushirganidan bo'zararkan:

Knyaz' Cherkasskiy, avf etadilar, dedi.

Cherkasskiyning kayfiyati chog' bo'lgani uchun Grigoriy Volkovga hech qisi yo'q degandek qo'l silkip qo'ydi. So'ng qorovul bo'linmalari boshlig'iga:

Komendantingizga odam yuboring, dedi. Mixail Karetov bilan kelgan elchilarni bu yoqqa boshlab kelishsin.

Qorovul bo'linmalari boshlig'i Cherkasskiyning buyrug'ini bajo keltirish uchun chodirni tark etdi. Cherkasskiy chodirning to'rida qo'yilgan o'z kursisida joylashib olarkan Mixail Samonovga:

Janob Samonov, siz aytganingizdek xivaliklarni ta'qib qilmasak ham, ularning o'zlarini endi mag'lubiyatlarini tushunib yetishdi, dedi. So'ng boshqalarga: Shundaymasmi, janoblar, deb murojat qildi.

Albatta shunday, B uzuq-yuluq ovozlar eshitildi chodirdan.

To'g'ri aytasiz, tan oldi Samonovning o'zi ham.

Knyaz' Cherkasskiy ichida g'urur tuydi. Shu payt chodirga qorovul bo'linmalari boshlig'i kirib, chodir ortida Mixail Karetov bilan birga xonning elchisi Eshonxo'ja hamda Sherg'ozixonning lashkarboshilari Qulunbek va Nazarxo'jalar turganligini aytadi.

Cherkasskiy o'zini salkam poshodek tutarkan:

Ayting, kirishsin, deddi qorovul bo'linmalari boshlig'iga.

Ichkariga qorovul bo'linmalari boshlig'i ortidan avval novcha Mixail Karetov, so'ng choponlik va salsa o'ragan Eshonxo'ja kirdi. Ularning ortidan sovut kiygan Qulunbek va Nazarxo'jalar ko'rindi. Cherkasskiy kelgan mehmonlarni xushkayfiyat bilan kutib olarkan:

Sizlarni ko'rganimidan bag'oyat xursandman, dedi. Bu chodir garchi xoningiz Sherg'ozixonning saroyi oldida odmi va jo'n bir katalakdek ko'rinsa ham, sizlarni bu yerda kutib olganimizdan xafa bo'lmaysiz degan umiddamiz.

Aslo janob Bekovich-Cherkasskiy, dedi soqollariga oq oralay boshlagan Eshonxo'ja. Biz sizning holatingizni to'g'ri tushunamiz. Aslida siz mehmonlarga xush keladigan joyni biz hozirlab berishimiz lozim edi. Ammo orada bu taxlit souvuqchilik tushgani bizga xalal berdi.

Elchingin so'zamolligidan hayron bo'lgan Cherkasskiy ularni o'tirishga taklif qilarkan, xonning lashkarboshilari Qulunbek va Nazarxo'jalar bilan ham yaxshiroq tanishib oldi. Sherg'ozixon huzurida bo'lib qaytib kelgan Mixail Karetov ham Cherkasskiyga xivaliklar haqida iliq fikrlar bildirdi. Knyaz' Mixail Samonov, brigadir Grigoriy Volkov va boshqalar ham xivalik a'yonlar bilan iliq munosabatda bo'lishdi. Ayniqsa Eshonxo'janing muomilasi va o'zini tutishi Cherkasskiy va boshqa rus zodogonlariga ayricha ta'assurot qoldirdi. Eshonxo'ja knyaz' Cherkasskiyga:

Marhamatli knyaz', dedi. Men xonimizning sizga va ekspeditsiyangizga yetkazib qo'yishim lozim bo'lgan bir gapni aytishni istardim.

Xo'sh, qanaqa gap ekan? qoshlari chimirildi Cherkasskiyning.

Xonimiz Sherg'ozixon orada bo'lib o'tgan ko'ngilsizliklarni unutgan holda sulhga kelishimizni istaydi.

Yaxshi, dedi Cherkasskiy. Bu sulhning shartlari sizningcha qanaqa ekan?..

Oddiy, dedi Eshonxo'ja o'zini dadil tutib. Ya'ni, bundan buyog'iga bir-birimizga hujum qilmaslikka kelishib olsak. Shuning uchun biz xonimizning lashkarboshilarini ham huzuringizga olib keldik.

Janob Qulunbek, dedi kutilmaganda Cherkasskiy. Siz janob Eshonxo'janing fikrlariga nima deysiz?..

Biz Nazarxo'ja ikalamiz rostdan ham shunday sulhga erishish uchun bu yerga kelgamiz.

Shunday, Nazarxo'ja ham Qulunbekning so'zlarini tasdiqladi. Bizning maqsadimiz faqat shu. Sherg'ozixon hazratlari ham tinchlik va do'stlik sulhiga erishishni juda-juda istamoqda.

Buni biz ham istaymiz, dedi kutilmaganda Bekovich-Cherkasskiy.

Janob knyaz', dedi bundan norozi bo'lgan Mixail Samonov.

Knyaz' Samonov, B so'zimni bo'lmanq, e'tiroz bildiri Bekovich-Cherkasskiy.

Ammo, og'iz juftladi yana Samonov.

Qarorni men qabul qilaman, siz emas, cho'rt kesdi Mening ham birdan-bir niyatim Xiva xonligi bilan tinchlik va do'stlik aloqalarini o'rnatish.

Siz janobi oliylarining bu so'zlaridan boshimiz osmonga yetdi, ko'nglidagini yashirib o'tirmadi Qulunbek.

Elchi Eshonxo'ja va lashkarboshi Nazarxo'jalar ham Bekovich-Cherkasskiyning qaroridan xursand ekanliklarini izhor etishdi.

Sherg'ozixon huzurida bo'lib qaytgan Mixail Karetov ham bunday bitimga kelinganligini xushkayfiyat bilan qarshi oldi. Ammo Cherkasskiyning bu fikrlariga qo'shilmanlar ham talaygina edi. Knyaz' Mixail Samonov va boshqa ko'plab qo'shin komandirlari va ayrim navigatorlarning qovog'idan qor yog'ayotganligidan ham buni payqab olish mumkin edi. Biroq Cherkasskiydek uzoqni ko'zlagan kishi uchun ularning bunday hatti-harakatlari jahnga berilib aqli ketgan kishilarning qilig'ini eslatardi. Harbiy diplomatiyani tushunmaydigan bunday boshliqlarni o'ziga qolsa shu bugunoq ekspeditsiya tarkibidan haydar yuborardi. Ammo ularning ko'plari shaxsan imperatorga yaqin odamlar, podshoning ishonchli va xufiya mulozimlari. Shu boisdan ham ular bilan kelishish lozim. Biroq Sherg'ozixonning odamlari ko'z o'ngida bunday qilish ham bir qarashda yaramaydi. Mayli, ular tinchlik va do'stlik sulhi tuzishganiga ishonihsin. Xivalklarning harbiy va ruhiy tayyorgarligi biroz bo'lsa ham susaysin. Ana o'shanda Xivani Cherkasskiy yanada osonroq qo'lga kiritadi. Axir deyarli qon to'kmay butun bir xonlikni egallash har qanday fotihning ham qo'lidan kelavermaydi. Knyaz' Cherkasskiy mana nimalarni o'yalamoqda edi. U mana shuning uchun ham xonning elchisi Eshonxo'ja va lashkarboshilar Qulunbek va Nazarxo'jalarning tinchlik va do'stlik sulhiga erishish haqidagi taklifiga labbay deb javob bergandi.

Elchilar bilan harbiy majlislar chodirida bo'lgan suhbatdan so'ng Bekovich-Cherkasskiy Sherg'ozixon tomonidan kelgan kishilar sharafiga bazm uyuشتirdi. Mehmonlarni dudlama baliq va rus arog'i bilan xushnud etdi. Hammaning kayfiyati chog', vaqt mazmunli o'tayotgandi. Knyaz' Cherkasskiy ham o'ziga yo'q xursand edi. Shu payt qorovul bo'linmalari boshlig'i uning oldiga kelib:

Janob Cherkasskiy, qaynotaniz knyaz' Golitsinching chopari siz bilan zudlik bilan uchrashmoqchi, dedi. Biz, hozir janob knyaz' band deganimizga qaramay, u uchrashtinglar deb qistamoqda.

Yaxshi, dedi Cherkasskiy ko'ngli allanimalarni sezib. U bilan hoziroq uchrashaman.

Cherkasskiy davra ahlidan uzr so'rab, qorovul bo'linmalari boshlig'ini ortidan mehmonxona uchun ajratilgan chodirdan tashqariga chiqdi. Qorovul bo'linmalari boshlig'i soqchilardan biriga:

Knyaz' Golitsin nomidan kelgan choparni buyoqqa boshlab keling, dedi. Ammo Cherkasskiyning o'z chodiri tomon qayrilib ketayotganligini ko'rib dedi: Janob, uni chodiringizga yuboraman.

Cherkasskiy qorovul bo'linmalari boshlig'iga bosh irg'ab qo'yi. Birpasdan so'ng soqchilardan biri kirib Cherkasskiyga: U keldi, dedi.

Ayting kirsin, dedi Cherkasskiy.

Soqchi tashqariga chiqqach, ichkariga knyaz' Golitsinching chopari kirdi. U Bekovich-Cherkasskiy bilan harbiychasiga salomlasharkan:

Janob, men knyaz' Golitsinching topshirig'iga ko'ra huzuringizga kelgandim, deb gap boshladi.

Xabarim bor. Nima gap o'zi? xavotirlanib unga qaradi Cherkasskiy.

B Janob, ming afsuski, sizga mash'um xabar keltirdim, dedi knyaz' Golitsinching chopari. Rafiqangiz Mariya va qizingiz Volga daryosiga cho'kib ketdi

Cherkasskiy yalt etib choparning ko'zlariga qaradi. Uning bu qarashida achchiq haqiqatni hazm qilayotgan insonning mungli va nazarkarda ko'zlar zuhur etardi. U shu kuyi bir muddat merovlanib turarkan, g'amgin tovush bilan asta so'radi:

Ular o'ldimi?..

Afsuski, ha janob, bosh silkidi chopar. Knyaz' Golitsin sizni bu fojeadan xabaror bo'lishingizni istab meni yubordi.

Cherkasskiy burqsitib tamaki chekarkan, choparga nima deyishni ham bilmasdi. Uning ko'zlaridan o'zi ham sezmagan holda g'iltilab yosh oqardi. Chopar Cherkasskiyning holatini darhol payqadi.

Janob, ruxsatingiz bilan sizni yolg'iz qoldiraman, dedi.

Bekovich-Cherkasskiy churq etib og'iz ochmadni. Chopar uni chodirda yolg'iz qoldirib tashqariga chiqdi. Ichkarida esa Cherkasskiyning ho'ngrab yig'lagani eshitilardi

V

Xotini Mariyavaqizininafotinieshitganknyaz' Bekovich-Cherkasskiyo'shakuni kechgaqadar hech kimni qabul qilmadi.

Jondanortiqko'rganayolivaqizidanayrilganiknyazningko'ngligasig'mas, utinimsiz tamakiche karvayuragining tub-

tublaridan azoblanardi. Uuchun endidun yobo'm-bo'shbo'libqolgan,

anashubo'shliqqo'ynidakatta orzularini yuragi dadafn qilgan Cherkasskiy armonike ziburardi.

Uchodiridashunday yolg'iz izlik bodasining achchiqtalxinisimirkan,

qorovulbo'linmalariboshlig'iuning huzuriga Sherg'ozixonning elchisi Eshonxo'jakir moqchi ekanligini aytdi.

Elchijanoblar bilan qaplasha olarmikanman? savolomuz qorovulbo'linmalariboshlig'iqa qaradi Cherkasskiy. Ammo undan hech gap ololmasligini bilgach dedi: Mayli, elchini kriting.

Ichkariga soqollariga oq oralagan, yuzlari janub oftobidan qoraygan o'sha sallali chol Eshonxo'ja kirdi.

Afv etadilar janob Cherkasskiy, dedi u kirgan zahoti. Qizingiz va zaifangizning munglig' kechmishini eshitdim. Sizga tangridan sabr tilayman.

Raxmat, dedi Cherkasskiy Eshonxo'jaga minnatdorona qarab qo'yarkan. Taqdirimda bor ekan, nima ham qillardim.

Biz qaytish uchun sizdan ruxsat olmoqchi edik. Sarkardalarimiz Qulunbek va Nazarxo'jalar ham sizga o'z ta'ziyalarini bildirib yubordilar. Endi biz qaytsak. Sherg'ozixon hazratlarini mahtal qilmaylik. Sizni ham shunday og'ir damda bezovta qilishni istamasdi.

Hammasi uchun sizga raxmat elchi janoblari, Cherkasskiy og'ir so'lish oldi. Sherg'ozixon hazratlariga mening nomimdan katta salomlar yo'llang. Biz sizlar bilan tinchlik va do'stlik sulhiga albatta erishgaymiz. Xon hazratlariga bu so'zlarimni yetkazing.

Xo'p bo'ladi janob Cherkasskiy, qulluq qilib bosh egdi Xiva elchisi. Sizning ezgu istaklaringizni xonimizga albatta yetkazaman. Darvoqe, sizga xonimizning yana bir iltimosini yetkazmoqchiman.

Qanaqa iltimos? hayron bo'lib Eshonxo'jaga qaradi Cherkasskiy. So'ng sharqona lutf bilan dedi: Xon hazratlari biz faqirdan qanday iltimos qilmish?..

Sherg'ozixon hazratlari sizni o'z saroyiga mehmonga taklif etadilar hamda, siz va odamlaringizga mehmonnavozlik ro'yini ko'rguzishni o'zlarining oliy maqsadi deb bilmoxdalar.

Rostdan aytayapsizmi? Cherkasskiy ko'z qirini Eshonxo'jaga qaratdi.

Albatta janob, dedi Eshonxo'ja. Ko'pchilikning ichida ko'rishganimizda buning mavridi bo'limgandi. Ammo ketish oldidan xonimizning bu taklifini sizga yetkazib qo'yay degandim. Xonimizning iltimosini yerda qoldirmaysiz degan umiddaman.

Xotiringiz jam bo'lsin Eshonxo'ja janoblari, elchiga tik boqdi Cherkasskiy. Sherg'ozixon hazratlari bizni mehmonnavozlik bilan sylamoqchi ekan, biz albatta yaqin kunlarda saroyga tashrif buyuramiz.

Janob Cherkasskiy, dedi elchi. Endi bizga ruxsat bersangiz.

Mayli, sizlarga ruxsat. Qulunbek va Nazarxo'jalarga ham mening minnatorlik tuyg'ularimni yetkazing. Afsus, hozirgi holatimda sizlarni kuzatishga chiqolmayman. Ekspeditsiyadagilar meni bunday abgordiyda ko'rishlarini istamayman. Xoningizga mening nomiman quyuq salomlariningizni yetkazing.

Eshonxo'ja Cherkasskiy bilan xayrashib tashqariga chiqdi. Knyaz' Bekovich-Cherkasskiy qorovul bo'linmalari boshlig'ini chaqirtirib Xiva elchilarini izzat-ikrom bilan kuzatib qo'yishni buyurdi. Chodirda yolg'iz qolarkan, xotini Mariya va qizi yana yodiga tushdi. Endi Mariyani boshqa ko'rmasligini o'ylarkan, yuragi battar koni talx bo'lardi. To'g'ri u Mariyagacha ham ko'p ayollarni ko'rgan ammo ularning hech qaysisini xotini bilan teng qo'ya olmasdi. Ko'z o'ngidan yoshligining hamrohi ko'zlarning yondiruvchi cherkas qizlari o'tdi. U paytlar Iskandarbek bo'lgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy har kecha bitta cherkas qizning og'ushini gullatardi. Qanday beboslik davrlar edi-ya u paytlar. Hammasi qanday tez o'tdi-ketdi. Keyin bu shuhratparast yigitcha Peterburgga keldi. Badavlat o'ziga to'q bu yigit saroy hayotiga suqlib kirish uchun imperator a'yonlarining qizlarini ko'nglini ovlay boshladi. Va bir kuni bahaqqi kushod uning to'riga knyaz' Golitsinning qizi Mariya ilindi. Uzun bo'yli, oqbadan, mallasoch jonon Iskandarbekning yuragini shunday o'rtab yubordiki, buni so'zlar bilan ta'riflab bo'lmasdi. Yo'q, bu shunchaki xomtala muhabbat emas edi. Bu cherkas qizlarining og'ushini yondirgan yigitning rosmana muhabbat edi. Sirasini aytganda, Mariyaga yetishganidan so'ng ham unga xiyonat qilishiga to'g'ri kelgan. Ammo bu Mariyaning homiladorlik vaqtlarida, shunchaki, rus oyimchalarining ta'zirini berib qo'yish uchun yo'l-yo'lakay qilingan hoyu-havaslar edi. Biroq tan olish kerakki, ularning hech qaysisi Mariyaning o'gay tukiga ham arzimasdi. O, Yevropada harbiy bilimini oshirish uchun borganida ham Mariyani unutishiga qancha marotaba to'g'ri kelgan. Bir gal birato'l ikkita qoramag'iz golland qizlarini haqini berishga to'g'ri kelgandi. Baliqday shaloplayverib juda holi-joniga qo'yimagandi qizi tushmagurlar. Fransuz oyimchalar ham unga qanday baxтиyor lahzalarni hadya etgandi. Ammo baribir Mariya boshqacha edi. Barcha polyankalar, nemkalar, italyankalar boringki u ko'rgan boshqa ayollar ichida unga teng keladiganini Cherkasskiy eslolmaydi. Balki xivalik go'zallar ichida shunaqasi bordir. Sherg'ozixon saroyida go'zal oyimchalar qancha ekan-a?.. Qancha kanizaklari malikalari bor ekan bu Sherg'ozixonning, kim bilsin?.. O, men nimalarni o'ylayapman-a?.. Mening xotinim va qizim vafot etdi. Mening buzuq ko'nglimga shayton oralaganini qarang-a?.. Qanday vijdonsizlik?.. Meni o'zi Xudo urgani shu bo'lsa kerak. O'z dinimdan chiqib nasroniylikni qabul qildim. Bu Xudoga xush yoqmagan ko'rindi. Shuning uchun ham u meni jazoladi. Xotinim Mariya va qizimni mendan olib qo'ydi. Men cho'qintirilgan badbaxt o'zim beimon bo'lganim yetmaganday, endi nasroniylarining yugurdagi bo'lib, musulmonlarning davlati va joniga qasd qilib ekspeditsiya niqobi ostida menin turkiy birodarlarim ustiga qo'shin tortib kelibman. O, turkiylar vaqtida birlasholmagan halqlar. Qo'sh kallali kalxat Rossiya bizni bittama-bitta yeb kelmoqda. Qabardinlar, ingushlar, yoqtular, chechinlar, tatlar, lezginlar, tatarlar, endi esa O'rta Osiyoliklar hamma-hammamizni bu qo'shboshli burgut bir kun yeb qo'yadi. Cherkasskiy boshi-kechiyo'q xayollar ichida adashar, qanday qilish, nima qilish kerakligini hech ham tagiga yetolmasdi

## VI

Tongning nurafshon yog'dulari ona zaminga duraxshon nurlarini to'kayotgan muazzin kunda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy butun qo'shini bilan Xiva xonligi tomon yo'lga tushdi. Chegaraga yaqin joyda ularni xonning tanish sarkardalari Qulunbek va Nazarxo'jalar boshchiligidagi bir guruh xivalik a'yonlar kutib oldi. A'yonlar Cherkasskiyning as'asa va dabbaba bilan shahar tomonga boshlab borishdi. Xonlikning bosh shahri Xivaga yetishish joyida shaxsan Sherg'ozixonning o'zi Bekovich-Cherkasskiyni kutib oldi. Oq tulpor mingan, kelishgan, keng yag'rinli, yoshi biroz o'tinqiraniga qaramay ancha dadil ko'rindigan xonning o'zi Bekovich-Cherkasskiyni otdan tushgan kuyi qarshi oldi. Cherkasskiy ham xonning hurmatiga yarasha mulozamat qilib navozishlar ko'rsatdi. Rus aslzodalari ham xivalik a'yonlar bilan o'zaro salomlashuvdan so'ng Sherg'ozixon Cherkasskiyga dedi:

Uzrxohligimizni qabul eting, janob Cherkasskiy, o'zaro tushunmovchilik sabab, sizlarni mehmondekkutib ololmadik.

Hech qisi yo'q, xon hazratlari, sizdek ulug' zotning men kabi bir musofir va uning odamlariga bunday shohona iltifotingiz hech bir ta'rifga sig'mas.

Qani, Xivaga marhabo! navozish ko'rsatdi xon.

Qulluq, xon hazratlari, qo'lini ko'ksiga qo'yib xon bilan birga yo'l yura boshladi Cherkasskiy.

Darvoqe, xon hazratlari, a'yonlar orasidan ajralib chiqqan Qulunbek Sherg'ozixon va Cherkasskiy tomon yaqinlashdi. Meni ma'zur tuting, bir istihola gapni shu yerda aytishni lozim topdim.

Xo'sh, ne gap ekan? hayron bo'lib unga qaradi xon. Cherkasskiy va uning ekspeditsiyadagilar ham Qulunbekning og'ziga qarashdi.

Xon hazratlari, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, Cherkasskiy janoblarini oldida biroz uyalib qolmasak deb qo'rqaman.

Nima uchun sarkarda? xon Qulunbekni so'roqqa tutdi.

Afv etadilar xon hazratlari, bizning saroyimiz, ya'ni, siz janobi oliylarining saroyi buncha mehmon borsa, torlik qilib qoladi. Cherkasskiy janoblarini oldida uyatga qolmaylik.

Sherg'ozixon iljaydi. So'ng Bekovich-Cherkasskiyga izoh berdi:

Sarkardamiz Qulunbek, juda xushyor odam-da, biz e'tibor qilmagan narsalarga bu kishining e'tibor qilganini qarang. Biz buni o'ylamagan ekanmiz.

B Nimani nazarda tutayapsiz, xon hazratlari? so'radi Cherkasskiy.

Gap shundaki janob Cherkasskiy, javob berdi Sherg'ozixon. Xivada Peterburgdag'i kabi katta mehmonxonalar yo'q. Saroy ham

This is not registered version of TotalDvdConverter  
buha menmon qolganligi shuning uchun sarkarda Qulunbek shundan xavotirga tushmoqda.

Shunday, janob Cherkasskiy, xonning fikrlarini qo'llab-quvvatladi Qulunbek.

Nima deyishga ham hayronman, xavotirlanib xon va Qulunbekka qaradi Cherkasskiy.

Ammo bu muammoni biz albatta hal qilamiz.

Qanday qilib axir xon hazratlari, Cherkasskiyning dili dagini aytdi Qulunbek.

Cherkasskiy janoblari qarshi bo'lmasalar, mening bir taklifim bor, dedi xon.

Qanday taklif, xon hazratlari? so'radi Cherkasskiy.

Biz o'z imkoniyatlarimizdan kelib chiqib, sizning ekspeditsiyangizni olti guruhga ajratsak. Siz boshchililingizdagagi birinchi guruh bizning xonlik saroyimizga tashrif buyuradi. Qolgan beshta guruh esa, Xivaning eng hashamatli beshta mehmonxonasidan o'ren egallaydi. Rus podshosi Pyotr I nomidan Xivaga yuborilgan ekspeitsiyaning har bir a'zosiga shohona iltifot ko'rsatiladi. Toki ular bizning davlatimiz hududida ekan ular mening soyayi davlatim panohida bo'lgay.

Himmatingiz benihoya keng, hazrati oliylari, xonga qulluq qildi Cherkasskiy. Taklifingiz chin yurakdan bo'lsa, siz janobi oliylarini noqulay ahvolga solmaslik uchun biz buni tashakkurona qabul qilgaymiz.

Sarkarda Qulunbek, dedi xon namoyishkorona.

Qulog'im sizda hazrati oliylari, qo'l qovushtirdi Qulunbek.

Siz sarkarda Nazarxo'ja bilan birgalikda, mehmonlarni joylashtirish ishlariga bosh-qosh bo'ling. Men saroy a'yondari bilan birgalikda janob Cherkasskiyning saroyga boshlab boramiz.

Xonning shu taklifidan so'ng, Cherkasskiy ekspeditsiyasi olti guruhga bo'lindi. Birinchi guruhda Cherkasskiy bilan birgalikda bo'lgan uning tan soqchilar, Mixail Samonov, Mixail Karetov, Grigoriy Volkov, qorovul bo'linmalari boshlig'i va komendantlar va yana bir qator taniqli kishilar bor edi. Qolgan guruhlarda esa navigatorlar, irrigatorlar, geologlar, geograflar, ijtimoiy antropologiya mutaxassislar va boshqalar joy olgandi. Guruhlar oltita tarafga bo'lingach, bir-birlaridan batamom uzoqlashib ketishdi. Yo'q, Xiva mehmonxonalarini bir-birdan ko'p ham uzoq mavzeda joylashmagan edi. Aksincha, bu Sherg'ozixonning avvaldan o'ylab qo'yilgan ayyorona siyosatining natijasi edi. Buni Cherkasskiy qolgan guruhlar uzoqlashib ketganidan so'ng, xonning lutfi o'zgarib qolganligidan sezdi. Ammo endi kech bo'lgandi.

Bekovich-Cherkasskiy, dedi xon. Mening xufiyalarim sen haqingdagi barcha ma'lumotlarni menga yetkazishgan. Kimsan, qanday qilib Bekovich-Cherkasskiyga aylangansan, hammasi menga ma'lum.

Xon hazratlari, bunday takallufsizligingizni boisi nima? so'raddi Cherkasskiy.

Boisi shuki, dedi xon. Sen bizning yurtimizni tasarruf etishga kelgansan. Demakki, sen bizning g'animimizsan. G'animiga esa hech qachon takalluf qilinmaydi.

So'zlariningizni tushunolmadim, xon hazratlari, Cherkasskiy qo'lini qinidagi qilichga yubordi.

Qimirlama Cherkasskiy, uning ortidan qilich tirg'adi kimdir. U yoniga sekin o'grilib, xonning elchisi Eshonxo'jani ko'rdi.

Askarlar, dedi xon. Bu betavfiqlarning barchasini o'diring!

Bir zumda atrofni piltali miliqlarning qasar-qusur tovushi-yu, qilichlarning jarangi tutib ketdi. Xonning tan soqchilar, Sherg'ozixonning atrofini zinch o'rabi olishdi. Bir muddatlik jangu-jadaldan so'ng, ekspeditsiya a'zolaridan Cherkasskiy, Mixail Samonovdan boshqa barchanining mayiti zavol to'shangiga bosh qo'yanligini ko'rish mumkin edi. Cherkasskiy va Mixail Samonov Sherg'ozixonning buyrug'iga ko'ra, saroyga olib ketildi. Ularning qo'l-oyoqlariga g'ul solib zindonga tashlashdi

Ertasi kuni Sherg'ozixon saroyda kengash o'tkazarkan, asirlarning taqdirlini hal qilish uchun ularni huzuriga keltirishni buyurdi. Saroy soqchilarasi asirlarni xon o'tirgan olyi mashvaratga olib kirishdi.

Cherkasskiy janoblari, burungi Iskandarbek, qah-qah otib uni qarshi oldi xon.

Men rus imperatori Pyotr I ning ishongan odamlaridanman, men bilan bu ohangda gaplashmang, xon, Cherkasskiyning ichini otash yondirdi.

Ovozingni o'chir murtad, dedi sarkarda Nazarxo'ja. Sening xonimizga po'pisa qilishga haqqing qolmagan.

Bu ruslarning malayi turkiylarning nomini toptadi, dedi Qulunbek.

Ha, u shunday qilgan. O'zi ham turkiy bo'la turib, turkiy xalqlar ustiga slavyanlarni boshlab keldi, dedi kutilmaganda asirlarning boshqasi Mixail Samonov. Agar meni ozod qilsangiz, sizlarga Pyotr I ning uni Xivaga nima uchun yuborganligini ayтиб beraman. Hojati yo'q, dedi xon. Sen forsning gunohing qanday bo'lsa, uniki ham shunday. Bizga ruslarning, jumladan, Pyotr I ning ham asl maqsadi ayon. Men Sherg'ozixon, so'zni cho'zib o'tirmayman. Jallod, bu murtadlarni har ikalasini ham qatlga elting va o'diring. O'z eli va vatanini sotganlarning boshqa jazosi yo'q

Cherkasskiy va Mixail Samonov dod solgancha, Sherg'ozixonidan avf so'rashdi. Biroq xon o'z qaroridan kechmadi. Jallod avval Mixail Samonovning kallasini oybolta bilan shartillatib chopib tashladi. Bekovich-Cherkasskiy taqdirga tan berdi va boshini jallod kundasiga qo'ydi. Uning ko'z o'ngida Volga daryosida cho'milayotgan qizi va xotini Mariya ko'rindi. Ular Volganing tiniq shovvadek suvlari ostidan uni qo'l cho'zgancha chorlashyotgandi. Cherkasskiy oyboltanining sharq etgan tovushini eshitdi.

Ko'zlarini yumarkan, endi boshqa hech narsani sezmadni

Б†‘ Pyotr I ning Bekovich-Cherkasskiyga yo'riqnomasining asl varianti Rossiya Federatsiyasi Markaziy Davlat harbiy-tarixiy arxivida saqlanmoqda. VUA-jamg'armasi, 35-ish, 57-varaq.

Б†‘ Qalmoqlar xoni Ayukaning mazkur maktubi Moskvadagi Qadim Aktlar Davlat Markaziy Arxivida turibdi. SGADA, "Buxarsiye dela", kn.I, ch. II, 215-216-betlar.